


**TOSHKENT SHAHAR
TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2019-yil yanvar-mart)**

2019-yil yanvar-mart oyi yakunlariga ko‘ra, Toshkent shahrida tashqi savdo aylanmasi 2802,3 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 20,9 % ga o‘sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 646,0 ming AQSH dollarga (4,5 % ga kamaydi) va import hajmi 2156,3 ming AQSH dollariga (o‘sish sur‘ati 31,4 %) yetdi. Tashqi savdo saldosi -1510,3 mln AQSH dollarini tashkil qildi.

**Toshkent shaharning tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSH dollari)**



Toshkent shahrida so‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi yo’lida sezilarli ishlar olib borilmoqda. 2018 yil mobaynida tashqi savdo hajmi va eksportni tizimli ravishda jadal oshirishga qaratilgan tarkibiy o zgarishlar amalga oshirildi, xususan, valyuta siyosati liberallashtirildi, ma muriy to siqlar bartaraf etildi, eksport qilinadigan meva-sabzavot mahsulotlari uchun narxlarni shakllantirish va to lovning bozor mexanizmi joriy qilindi.

Shu bilan birga ta‘kidlab o‘tish kerakki, 2019-yilning yanvar-mart oyida Toshkent shahrida tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 485,0 mln AQSH dollariga, tovar va xizmatlar importi hajmi esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 515,2 mln.AQSH dollariga ko‘proqdir.

**Toshkent shahrida tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega bo`lgan 20 davlat**


(mln. AQSH dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o‘zgarish sur‘ati, %
Xitoy	632,6	177,3	455,3	22,6	122,8
Rossiya	607,8	124,5	483,3	21,7	101,7
Qozog`iston	217,9	39,7	178,2	7,8	97,8
Janubiy Koreya	194,9	11,6	183,3	7,0	4,2b
Turkiya	127,4	33,5	93,9	4,5	98,9
Afg`oniston	79,4	79,2	0,2	2,8	71,7
Singapur	69,1	5,0	64,1	2,5	14,6b
Germaniya	63,9	6,0	57,9	2,3	98,7
Hindiston	53,3	3,0	50,3	1,9	152,0
Ukraina	46,0	4,5	41,5	1,6	93,8
Latviya	43,9	2,7	41,2	1,6	89,9
Litva	42,5	4,1	38,4	1,5	100,6
Italiya	40,6	4,4	36,2	1,4	148,2
Turkmaniston	37,8	7,4	30,4	1,4	6,2b
AQSH	36,4	3,9	32,5	1,3	106,2
Tojikiston	34,5	31,8	2,7	1,2	84,1
Qirg'iziston	29,1	23,9	5,2	1,0	113,0
Buyuk Britaniya	27,5	9,2	18,3	1,0	98,0

Toshkent shahrida so‘nggi yillarda tashqi savdo aylanmasida ijobiy tomonga sezilarli o’zgarish kuzatilmoqda, jumladan Singapur 2019 yilning yanvar-martida o’tgan yilning mos davriga nisbatan 14,6 barobar o’sgan, Turkmaniston davlatida 6,2 baroborga o’sganini ko’rishimiz mumkin. Tashqi savdo aylanmasi o’tgan yilning mos davriga nisbatan Tojikiston (15,9 % kamaygan), Afg‘oniston (28,3 % kamaygan), Latviya (10,1 % kamaygan) davlatlar tashqi savdo aylanmasi o’tgan yilning mos davriga nisbatan kamaytirgan.

2019-yilning yanvar-mart oyi yakuni bo‘yicha tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug‘ullanuvchi korxonalar 665 taga yetkazildi.


Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi hajmi
(mln. AQSH dollarri)



Tashqi savdo aylanmasi dinamikasidan keltirilgan ma‘lumotlar ko‘rsatkichlarning qolgan yillarga nisbatan o‘sganligini ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, 2019-yil yanvar-mart oyida amalga oshirilgan tashqi savdo hajmi, o’tgan yillarga nisbatan ko‘payib, 2019-yilning yanvar-mart oyi yakunlariga ko‘ra, 2802,3 mln. AQSH dollarini tashkil qildi, import hajmi, o’tgan yillarga nisbatan ko‘payib, 2019-yilning yanvar-mart oyi yakunlariga ko‘ra, 2156,3 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.


Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasida oxirgi yillarga qaraydigan bo'lsak importning ulushi jami tashqi savdo aylanmasida eksportning ulushiga qaraganda biroz yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan 2019 yilning yanvar-mart xolatiga tashqi savdo aylanmasida import (76,9 %), eksport (23,1%) ni tashkil qilgan.

Tashqi savdo aylanmasida eksport va import ulushi, (% da)




Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-mart oyida Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 36,0 % ni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,0 % tashkil etdi. Eksportda MDH davlatlarining ulushi 38,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,1% ni tashkil qildi. MDH davlatlari orasida Rossiya va Qozog'iston, Ukraina va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanadi

Tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa xorijiy davlatlarning hajmi
(mln. AQSH.dollari)



Boshqa xorijiy davlatlarning Toshkent shahri tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018-yilning yanvar-mart oyida 57,4 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 64,0 % ga yetdi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan 35,0 % ga o’sdi.

Tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa xorijiy davlatlarning hajmi dinamikasi
(mln. AQSH.dollari)



**Toshkent shahrining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi
dinamikasi**


ming. AQSH.dollari

Davlat nomi	2018 yil yanvar-mart				2019 yil yanvar-mart			
	Tashqi savdo	Eksport	Import	Saldo	Tashqi savdo	Eksport	Import	Saldo
Xitoy	514943,2	187661,2	327282,0	-139620,7	632585,8	177254,9	455330,9	-278076,0
Rossiya	597628,9	118538,5	479090,4	-360552,0	607810,2	124496,1	483314,1	-358818,0
Qozog‘iston	222661,9	38939,7	183722,3	-144782,6	217874,3	39747,4	178126,9	-138379,6
Janubiy Koreya	46258,3	10789,1	35469,2	-24680,2	194938,8	11604,7	183334,1	-171729,4
Turkiya	128810,0	49944,8	78865,1	-28920,3	127444,9	33534,5	93910,4	-60376,0
Afg‘oniston	110818,3	110452,8	365,5	110087,3	79449,4	79186,1	263,3	78922,8
Singapur	4724,5	1199,9	3524,6	-2324,8	69113,2	5006,7	64106,5	-59099,8
Germaniya	64779,9	5281,5	59498,4	-54217,0	63933,3	5950,3	57983,0	-52032,6
Hindiston	35085,8	3126,7	31959,1	-28832,4	53333,0	3025,1	50307,9	-47282,8
Ukraina	49064,3	13172,4	35891,9	-22719,5	46041,8	4506,0	41535,8	-37029,9
Latviya	48852,1	1917,8	46934,3	-45016,5	43909,7	2730,3	41179,4	-38449,1
Litva	42224,8	458,9	41765,9	-41307,1	42462,5	4070,9	38391,5	-34320,6
Italiya	27375,7	4064,3	23311,3	-19247,0	40557,4	4425,2	36132,2	-31707,0
Turkmaniston	6010,0	5262,9	747,0	4515,9	37834,6	7361,3	30473,3	-23112,1
AQSH	34288,8	5347,6	28941,2	-23593,6	36428,8	3897,4	32531,4	-28634,0
Tojikiston	41071,9	38960,2	2111,6	36848,6	34543,3	31848,6	2694,8	29153,8
Qirg‘iziston	25749,1	12450,7	13298,4	-847,7	29095,9	23904,5	5191,4	18713,1
Buyuk Biritaniya	28097,2	6737,2	21359,9	-14622,7	27521,6	9173,0	18348,6	-9175,6


EKSPORT

2019-yil yanvar-mart oyida eksport hajmi 646,0 mln. AQSH dollarga teng bo'ldi. Eksport tarkibida xizmatlar 63,9 % ulushga ega bo'lib, 2019 yil yanvar-mart oyida jami eksportda xizmatlar 412,9 mln. AQSH dollarga teng bo'ldi.

**Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi
Yanvar-mart holatiga
(mln. AQSH. dollari)**




Eksport tarkibi jamiga nisabatan foizda



2019 yil yanvar-mart oyida Eksport hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,5 % kamaydi. Jami eksport tarkibida oziq ovqat mahsulotlari 2,8% ni, qora rangli metallar 3,7 % ni, tashkil qildi.

Toshkent shahrining MDH davlatlar bilan eksport hajmi

(mln. AQSH.dollari)



Toshkent shahrida eksport qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-mart oyida MDH davlatlarining ulushi jami eksportda 38,1 % ni tashkil etdi hamda o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 % ga oshdi. MDH davlatlari orasida yuqori ulushga ega davlatlar Rossiya (50,6%), Tojikiston (12,9%), Qozog'iston (16,2%) lar bo‘lib jami MDH davlatlaring 79,7 % ni tashkil qiladi.O‘tgan yilga nisbatan MDH davlatlari orasida eksport hajmi sezilarli ko’paytirgan davlatlar Qirg’iziston, Tojikiston, Rossiya davlatlar.

O'tgan yilga nisbatan MDH davlatlari orasida eksport hajmi sezilarli kamaytirgan davlatlar orasida Turkmaniston, Qozog'iston, davlatlari bor.

**Toshkent shahridan yanvar-mart oyida MDH davlatlariga
amalga oshrilgan eksportni tarkibi,
(ming AQSH dollarri)**


	mashina va asbob- uskumalar	oziqq-ovqat mahsulotlari	boshqalar	ximatlar	kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	qora va rangli metallar	energiya mambaalari va neft mahsulotlari
Ozarbayjon	1732,3	62,9	1033,2	460,7	108,9	494,8	6,5
Armaniston	-	44,4	-	21,7	-	-	-
Belarus	510,6	88,1	956,1	685,1	105,2	30,8	0,2
Qozog`iston	2453,0	1752,4	2953,4	25495,5	6305,3	690,8	97,1
Qirg`iziston	2652,1	357,7	3465,0	4081,2	13330,2	18,1	0,2
Moldova	-	63,6	-	58,0	-	-	-
Rossiya	15437,4	3625,3	38155,7	59469,3	3341,8	1651,9	2814,7
Tojikiston	1624,1	413,6	639,4	22725,0	6372,0	72,4	2,0
Turkmaniston	731,5	567,0	186,3	4852,4	1007,0	-	16,9
Ukraina	761,9	459,1	901,4	864,3	1499,4	19,3	0,6

MDH davlatlari orasida tovar va xizmatlaring eksport tarkibi xilma xilligi bo'yicha Rossiya,Ozarboyjon,Ukraina,Tojikiston alohida ajralib turadi.Bu davlatlar diyarli barcha tovar va ximatlar tarkibida Toshkent shahrining eksport hamkorini xisoblanadi.

Boshqa xorijiy davlatlari orasida tovar va xizmatlaring eksport hajmi eng yuqori davlatlar orasida jamiga nisbatan Xitoy (51,0%), Afg'oniston (18,9 %), Turkiya (5,4 %) ni tashkil qiladi.

**Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan
eksport hajmi yuqori ulushga
ega bo`lgan davlatlar**

(mln. AQSH.dollari)



Boshqa xorijiy davlatlari orasida Toshkent shahrida tovar va xizmatlaring eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan keskin kamaytirgan davlatlar orasida Afg'oniston, Turkiya, Germaniya davlatlari ham bor. O'tgan yilning mos davriga nisbatan Singapur, Janubiy koreya, Xitoy ko'paytirgan Toshkent shahrida tovar va xizmatlaring eksport hajmiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

**Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan
eksport hajmi yuqori ulushga
ega bo`lgan 10 davlat eksportni tarkibi**

(ming. AQSH.dollari)


	mashina va asbob- uskunalar	oziq-ovqat mahsulotlari	boshqalar	ximatlar	kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	qora va rangli metallar	energiya manbaalari va neft mahsulotlari
Xitoy	1112,8	442,2	2620,3	171735,9	341,2	140,8	861,7
Afg`oniston	106,3	6622,3	603,8	30818,6	1989,8	-	39045,3
Turkiya	5856,1	667,4	6401,4	8966,7	916,4	8707,0	2019,4
Janubiy Koreya	175,0	48,8	205,8	8852,4	640,8	-	1681,8
Eron		12,4	2686,6	2337,7	3320,1	1276,9	0,5
Buyuk britaniya	4,4	-	21,2	6545,0	-	2601,9	0,4
Germaniya	102,6	563,3	139,7	4186,9	677,4	238,0	42,5
Singapur	591,4	-	-	1103,2	-	3292,6	19,5
Belgiya	32,0	-	4,1	4868,9	-	-	-
Italiya	-	-	2743,4	1655,3	24,4	1,6	0,4

Boshqa xorijiy davlatlar orasida tovar va xizmatlaring eksport tarkibi xilma xilligi bo'yicha Xitoy,Turkiya Germaniya davlatlari alohida ajralib turadi.Bu davlatlar diyarli barcha tovar va ximatlar tarkibida Toshkent shahrining eksportdagi asosiy hamkorlari xisoblanadi.


IMPORT

2019-yil yanvar-mart oyida import hajmi 2156,3 mln. AQSH dollarga teng bo'ldi. Import tarkibida mashina va asbob-uskunalar 41,9 % ulushga ega bo'lib, 2019 yil yanvar-mart oyida jami importda mashina va asbob-uskunalar 902,5 mln. AQSH dollarga teng bo'ldi.

**Tovar va xizmatlar import tarkibi
yanvar-mart holatiga
(mln. AQSH. dollari)**




Import tarkibi jamiga nisabatan foizda



2019 yil yanvar-mart oyida Import hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 31,4 % o’sdi. Jami import tarkibida oziq ovqat mahsulotlari 11,0% ni, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar 41,9% ni, qora rangli metallar 12,1 % ni, energiya manbaalari va neft mahsulotlari 2,7% ni, tashkil qildi.

Toshkent shahrining MDH davlatlar bilan import hajmi

(mln. AQSH.dollari)



Toshkent shahriga import qiladigan MDH mamlakatlari orasida jamiga nisbatan Rossiya (63,5 %), Qozog‘iston (23,4 %), Ukraina (5,5 %) larni tashkil qilib jami MDH mamlakatlarning (92,4 %) ni tashkil qiladi. MDH mamlakatlari orasida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan Armaniston, Qozog‘iston, Belarusiya davlatlari kamaytirgan. Toshkent shahriga import qiladigan MDH mamlakatlar orasida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan Turkmaniston, Ukraina, Tojikiston, davlatlari ko’paytirgan.

**Toshkent shahriga yanvar oyida MDH davlatlariga
amalga oshrilgan import tarkibi,
(ming AQSH dollarri)**


	mashina va asbob- uskunalar	oziq-ovqat mahsulotlari	boshqalar	ximatlar	kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	qora va rangli metallar	energiya manbaalari va neft mahsulotlari
Ozarbayjon	-	72,5	0,2	451,1	809,4	0,4	189,7
Armaniston	-	37,0	-	0,2	101,5	-	-
Belarus	8196,5	3489,8	2363,3	580,0	1710,0	456,2	567,9
Qozog`iston	5619,2	77373,1	13385,7	5464,0	7947,6	52817,8	15519,6
Qirg`iziston	738,4	471,9	1376,2	593,7	250,8	1695,2	65,2
Moldova	25,5	29,0	140,8	3,4	137,4	-	-
Rossiya	90157,4	61895,2	115928,8	26887,0	53029,5	122926,8	12489,3
Tojikiston	242,0	17,8	1069,7	884,3	271,8	201,5	7,6
Turkmaniston	2572,9	28,5	1078,5	892,9	1033,8	39,1	24827,5
Ukraina	6172,6	18171,2	5261,6	55,8	10304,0	1370,5	200,0

MDH davlatlari orasida tovar va xizmatlaring importi tarkibi xilma xilligi bo'yicha Belarus, Qozog'iston,Qirg'iziston, Rossiya alohida ajralib turadi. Bu davlatlar diyarli barcha tovar va ximatlar tarkibida Toshkent shahrining import hamkorи xisoblanadi. MDH mamlakatlari orasida 2019 yil yanvar-mart oyi davomida Armaniston Toshkent shahriga ximatlar, oziq-ovqat mahsulotlari va kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar importini amalga oshirgan.

Boshqa xorijiy davlatlari orasida tovar va xizmatlaring importi hajmi eng yuqori davlatlar orasida jamiga nisbatan Xitoy (32,6 %), Turkiya (6,7 %), Janubiy koreya (13,1 %) ni tashkil qiladi. Bu davlatlar boshqa xorijiy davlatlari orasida jami tovar va xizmatlar importida 52,4 % ni tashkil qiladi. Birgina Xitoy mamlakati Toshkent shahriga 2019 yilning yanvar-mart oyida 732,5 mln AQSH dollarlik import qilgan. Bu ko'rsatgich bilan o'tgan yilning most davriga nisbatan 56,3 % ga o'sganligini ko'rsatadi.

**Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan
import hajmi yuqori ulushga
ega bo`lgan 10 davlat**

(ming. AQSH.dollari)



Boshqa xorijiy davlatlari orasida Toshkent shahrida tovar va xizmatlaring importi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan Latviya ,Litva keskin kamaytirgan .O'tgan yilning mos davriga nisbatan Xitoy, Janubiy koreya, Turkiya ko'paytirgan Toshkent shahrida tovar va xizmatlaring import hajmiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

**Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan
import hajmi yuqori ulushga
ega bo`lgan 10 davlat import tarkibi**

(ming. AQSH.dollari)

	mashina va asbob- uskunalar	oziq-ovqat mahsulotlari	boshqalar	ximatlar	kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	qora va rangli metallar	energiya manbaalari va neft mahsulodari
Xitoy	309855,4	7839,5	43017,7	2753,2	66412,0	25218,7	234,3
Janubiy Koreya	128636,8	1010,0	3700,1	4185,0	13892,5	30365,5	1544,2
Turkiya	37790,6	3096,5	15205,0	3539,2	22062,6	11515,8	700,8
Singapur	61730,2	-	9,3	2146,3	9,0	211,7	-
Germaniya	27774,4	1273,8	10912,3	2910,1	12643,0	2142,6	326,8
Hindiston	9615,0	1556,9	783,8	1925,8	35994,2	431,9	0,4
Latviya	15762,3	2089,2	1315,9	974,7	20729,0	308,3	-
Litva	26207,0	1392,6	2077,3	121,2	6463,5	1106,7	1023,2
Italiya	29061,8	586,6	979,3	1387,4	2743,7	1155,1	218,3
AQSH	11154,1	574,5	2370,7	5666,5	12382,7	377,6	5,5

Boshqa xorijiy davlatlar orasida tovar va xizmatlaring importi tarkibi xilma xilligi bo'yicha Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya, Litva, Germaniya alohida ajralib turadi. Bu davlatlar diyarli barcha tovar va ximatlar tarkibida Toshkent shahrining importda asosiy hamkorি xisoblanadi. Boshqa xorijiy davlatlar orasida 2019 yil yanvar-mart oyi davomida Braziliya va Latviya davlatlari Toshkent shahriga energiya manbaalari va neft mahsulotlari importini amalga oshirgan.



TOSHSTAT

Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistiaksi bo'limi.
Abdurayimov J.J
tel (71)230-88-20(21)